Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 811.111
FILOLOGIYA

SUYISHNING FONETIK USULDA IFODALANISHI

Durdonaxon MIRZAZODA*
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil izlanuvchisi
✉ mirzazodadurdona@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda suyishning fonetik usulda ifodalanishi haqida yoritilgan. Ingliz va o'zbek tillarida suyish ma'no maydoni fonetik usul misolida ko'rib chiqilgan, misollar keltirilgan va tahlil etilgan.

Kalit so'zlar

fonetika, suyish, ingliz tili, o'zbek tili, fonetik vositalar, semantik maydon, ifodalamoq

DOI: 10.5281/zenodo.21743800

KIRISH

O'zbek va ingliz tillarida suyish ma'nosi ushbu tillarning fonetik sath birliklari vositasida ham ifodala olish imkoniyatiga ega. Xususan, fonetik sathda suyish ma'nosi quyidagi ko'rinishlarda ifodalanishi aniqlandi:

Asosiy qism. 1. O'zbek va ingliz tilida ifoda etilayotgan maqsadni mayin, yoqimli va mehr muhabbatga to'la samimiy ohang bilan aytish vositasida suyish ma'nosi ifodalanadi.

2. So'z tarkibidagi unlini cho'zib talaffuz etish vositasida suyish ma'nosi reallashadi. Masalan: *– Oyi, obkashniyam ayting...-**Ayta qo-li-i-ng.** –Mayli, eshit. Bir bor ekan, bir yo'q ekan.*[1: 15] Ushbu misolda yalinish, ertak aytishga da'vat etish ma'nolarigina emas, balki bolaning ertak tinglashni juda yoqtirishi, ertakni juda sevishi ma'nolari ham mavjud.

Ingliz tilida*: Er – d'you want to come into Hogsmeade with me on Valentine's Day?' '**Oooh**, yes!' she said, blushing crimson and beaming at* him. [3: 488]

3. Murojaat etilayotgan shaxs ismini qisqartirib talaffuz etish vositasida suyish ma'nosi ifodalanadi: Xususan, ingliz tilida Caroline – Carrie, Catherine – Cathie, Clement – Clem, Edgar – Ed, Eleanor – Ella [4:813-814] tarzida ishlatilishi suyish ma'nosi asosida shakllangan va suyishni ifodalaydi. *Masalan: Ginny kissed **Albus** good-by. "See you at Christmas." "By, **Al**," said Harry as his son hugged him." [2:619]*

*Yoki: have a **pash** for somebody (sl)*[(pash) so'zi suyishi ifodalovchi (passion) so'zining qisqartirilgan shakli va suyishni ifodalash uchun xizmat quiladi. [10:683] Shuningdek, ingliz tilida qisqartirishning shunday ko'rinishi mavjudki, bunda suyish ma'nosini ifodalovchi lisoniy birlik asl ma'nosini saqlagan holda nutqiy qulaylikka intilish maqsadida qisqartiriladi. Masalan: **SWAK** (sealed with a kiss) – mod. written and sent with love and care. [6: 358//412; 7: . 327//378] L(big) -1 love; **LOL**=lots of love; **ILU** =I love you. [5: P. 1859 (R57)] Mazkur qisqartmalar asosan yozma nutqqa xos xususiyat sanaladi. Xususan, **L**, **LOL**, **ILU** elektron yozishmalar tizimida faol qo'llaniladi. Suyish ma'noli birliklarning bunday qisqartirilgan shalkli o'zbek tilida kuzatilmadi. Faqat "Farhod Shahloni sevadi" yoki "Farhod va Shahlo bir-birini sevadi "mazmunidagi [F+SH =S], asosan sevishganlar ishqiy yozishmalarida uchrovchi suyish ma'noli qisqartma mavjudligi aniqlandi. Suyishni bunday qisqarma shaklda ifodalash ingliz yigit va qizlari uchun ham xos.

O'zbek tilida Gulbahor, Gulasal kabi [gul] so'zi bilan boshlanuvchi ismlar [Guli], tarzida, Nulufar Nulu, Baxtiyor Baxti shaklida qisqartirilib, suyish ma'nosini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan:*–Ha, **Nilu**,*

yasanib olibsan, mehmonga ketyapsanmi? –dedim suygancha.[1: 11]

4. Tovush orttirish vositasida suyish ifodalanadi. Bunda orttirilgan tovush ismlarning oxiriga qo‘shiladi. Masalan, Barno//Barnosh, Shahlo/Shahlosh, [8: 3] Bobosher/ Bobosh, Gulanor, Gulsara/ Gulash, Gulish [9: 65-б, 92-б]

5. Ingliz va o‘zbek tillarida so‘z tarkibidagi undosh tovushni qo‘sh undosh tarzida talaffuz etish vositasida ham suyish ma’nosi ifodalanadi (aslida, bu ham tovush orttirilishining bir shakli). Bunda muayyan undosh qo‘sh undosh shakliga aylantirilishi bilan birga cho‘zib, bo‘g‘inga ajratilib talaffuz qilinadi. Shuningdek, ovozga yoqimlilik, suyimlilik, mayinlik foni beriladi. Masalan: **shak-karginam**, **Gul-li**, **Gul-lixonim** va boshqalar.

XULOSA

Demak, har ikki tilda ham suyish ma’nosini ifodalashda fonetik hodisadan foydalanadi. Har ikki tilda so‘zning muayyan o‘rnida unlilarni cho‘zib talaffuz etish, so‘z tarkibidagi undoshlarning ikkilanishi, gap talaffuziga yoqimlilik, mehr-muhabbatga to‘la samimiylik ohanglarini yuklash vositasida suyish ma’nosi ifodalanadi. Bu har ikki tilning suyish ma’nosini ifodalashda fonetik sathdagi o‘xshashliklaridir. Farqli jihatlari esa unli tovushlarni so‘zning qaysi o‘rnida cho‘zish bilan bog‘liq. Xususan, o‘zbek tilida suyish ma’nosini ifodalash uchun asosan so‘z oxiridagi unlilar cho‘zib talaffuz etiladi. Ingliz tilida esa bu ma’noni ifodalash uchun asosan so‘z o‘rtasidagi unlilar cho‘zib talaffuz etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hoshimov O‘. Dunyoning ishlari. – Toshkent: Global books, 2021.
2. J.K. Rowling. Harry Potter and the Deathly Hallows. – London: Bloomsbury publishing. 2014. VII.
3. J.K. Rowling. Harry Potterand the Order of the Phoenix. – London: Bloomsbury publishing. 2014. V.
4. Muller V.K. English-Russian Dictionary. – M.: Русский язык, 1991.
5. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of Current English. (seventh edition). Hornby A. S. – Oxford: Oxford University Press, 2005.
6. Richard A. Spears, Ph.D. NTC’s Dictionary of American Slang and Colloquial Expressions. Third edition. New York: by The McGraw-Hill Companies. NTC Publishing Group, 2000.
7. Ричард А. Спиерс. Словарь американского сленга. – М.: Русский язык, 1991.
8. Абдуллаев А. Ўзбек тилида экспрессивлик ифодапашнинг синтактик усули – Т.: Фан, 1987.
9. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари маъноси: (Изоҳли луғат). — Т.: Ўзбекистон миллим энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2007.
10. Кунин А.В. Англо-русский фразеологический словарь. – Изд. 3-е, испр., в двух книгах переработанное и дополненное. книга 1. – М.: Сов. энциклопедия. 1967.